

_____-sonli **KAFOLAT BERISH SHARTNOMASI***(raqami)*

_____ sh.

(joyi)

_____y.

(sana)

Bir tarafdin AT «Aloqabank» bundan buyon matnda «**Kafolat beruvchi**» deb ataluvchi, nomidan 20__ yil _____dagi _____-sonli Ishonchnoma asosida

*(cana)**(raqami)*

harakat qiluvchi _____

*(HKXKM/KXKM)**(lavozimi)**(F.I.Sh.)*

va ikkinchi Tarafdin _____,

*(tashkilot nomi)*bundan buyon matnda «**Prinsipal**» deb ataluvchi, nomidan _____*(ustav/ishonchnoma)*

asosan harakat qiluvchi, _____,

*(F.I.Sh.)*birgalikda «**Taraflar**» deb ataluvchi, ushbu Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:**I. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. **Kafolat beruvchi** mazkur Shartnomaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasidagi paxta yetkazib beruvchi korxonalar _____ (bundan buyon matnda «**Benefitsiar**» deb ataluvchi) bilan **Prinsipal** o'rtasida _____._____._____.yilda tuzilgan _____-sonli shartnomaga asosan yetkazib beriladigan paxta tolasi mahsulotining to'lovi yuzasidan _____._____.202__ yilgacha bo'lgan muddatga kafolat beradi.

1.2. **Prinsipalning** murojaatiga ko'ra, Kafolat beruvchi o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq, **Prinsipalning Benefitsiari** pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni **Benefitsiarga** to'lash haqida **Prinsipalga** yozma majburiyat beradi (bundan buyon matnda «**Kafolat**» deb yuritiladi).

II. KAFOLAT SUMMASI

2.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha beriladigan jami Kafolat summasi

_____ (_____)

*(summasi)**(summasi so'z bilan)*

so'm (bundan buyon matnda «**Shartnoma summasi**» deb yuritiladi) miqdorida pul summasini tashkil qiladi.

III. SHARTNOMANING MUHIM SHARTLARI

3.1. **Kafolat beruvchi** Kafolatni **Prinsipal** mazkur Shartnomaning 3.8 va 3.9-bandlarida bajarishi lozim bo'lgan majburiyatlarini bajargandan so'ng berishi mumkin.

3.2. Bir yoki bir nechta hujjat shaklida berilgan Kafolatlar bo'yicha amalda bo'lgan jami majburiyatlar umumiy summasi mazkur Shartnomaning 2.1-bandida belgilangan summadan oshmasligi lozim.

3.3. Agar Kafolatlar bir necha hujjat shaklida berilgan bo'lsa navbatdagi Kafolat muddati birinchi berilgan Kafolat amal qilish muddatining oxirgi kunidan oshmasligi lozim.

3.4. Berilayotgan Kafolatlar mazkur Shartnomaning amal qilish davridan uzoqroq muddatga berilishi mumkin emas.

3.5. Mazkur Shartnoma bo'yicha Kafolatlar **Prinsipalning Benefitsiar** bilan tuzilgan Shartnomasi bo'yicha vujudga keladigan majburiyatlar yuzasidan beriladi.

3.6. **Prinsipal** tomonidan **Benefitsiar** oldidagi majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmasligi natijasida **Kafolat beruvchi** tomonidan Kafolat bo'yicha to'lov(lar) amalga oshirilgan taqdirda, **Kafolat beruvchi** bu haqida **Prinsipal**ni xabardor qiladi.

3.7. **Prinsipal Kafolat beruvchi** to'lovlarni amalga oshirganligi haqida xabarini olgandan so'ng, Kafolat bo'yicha **Kafolat beruvchi** oldida yuzaga kelgan majburiyat(lar) summasini regress tartibida 3 (uch) ish kuni ichida **Kafolat beruvchiga** qoplab beradi.

3.8. **Prinsipal** Kafolat ta'minoti sifatida **Kafolat beruvchiga** qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kafolatni qaytarmaslik xatari oldini olish maqsadida

(garov mulklari nomi)

garovini takdim etadi.

3.9. Mazkur Shartnoma bo'yicha **Prinsipal** majburiyatlarini bajarilishini ta'minlash uchun taqdim qilingan garov bo'yicha barcha hujjatlarning asl nusxasi garovga qo'yuvchi tomonidan **Kafolat beruvchiga** topshirilishini ta'minlaydi.

3.10. Mazkur shartnoma amalda bo'lgan davrda **Prinsipal** moliyaviy hisobot shakllari (buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobot va muddati o'tgan debitorlik-kreditorlik qarzlari yoyilmasi) va ularning moliyaviy holati haqida boshqa zarur bo'lgan ma'lumotlarni **Kafolat beruvchiga** taqdim etadi.

3.11. **Prinsipal Kafolat beruvchiga** va uning vakillariga **Benefitsiar** bilan tuzgan shartnoma shartlariga rioya etishini o'rganish maqsadida o'z ob'ektlariga cheklovlarsiz kirishga, zarur hujjatlardan nusxa olishga ruxsat beradi.

3.12. **Kafolat beruvchi** berilgan Kafolat bo'yicha pul to'lash majburiyati vujudga kelishini oldini olish maqsadida **Benefitsiar** bilan tuzgan shartnomasi bo'yicha **Prinsipal** bajarishi lozim bo'lgan majburiyatlarini o'z vaqtida va lozim darajada bajarilishini nazorat qilib borishi mumkin.

3.13. **Prinsipal** Kafolat olish uchun taqdim qilgan biznes-rejaga to'liq amal qiladi va ushbu biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlardan kam bo'lmagan miqdorda pul mablag'lari aylanmasini AT «Aloqabank»da ochilgan hisobvaraqlari orqali amalga oshiradi.

3.14. **Prinsipal** berilgan kafolat yuzasidan monitoring ishlarini to'g'ri va aniq olib borilishi uchun boshqa banklarda ikkilamchi hisobvaraqlar ochmaydi, ikkilamchi

2 бет 5 дан

_____-Шартнома

_____ й.

hisobvaraqlar ochgan takdirda kafolat summasining 10 (o'n) foizi miqdorida **Kafolat beruvchi** foydasiga jarima to'lovlarini boshqa banklarda ikkilamchi hisobvaraqlar ochgan kundan 10 (o'n) kun muddatda to'lab beradi.

3.15. **Prinsipal** ushbu Shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida bank Kafolati bo'yicha belgilangan muddat va summa yuzasidan mol-mulki hisobidan (jumladan, garovga kuyilgan mol-mulk) **Kafolat beruvchi** oldida javob beradi.

3.16. **Prinsipal** tomonidan kafolat bo'yicha **Kafolat beruvchiga** zarar yetkazilganda **Kafolat beruvchi** O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 280-moddasi 2-qismiga muvofiq mustaqil ravishda sudga murojaat qilmasdan, garov predmetini tasarruf qilish huquqiga ega.

3.17. **Prinsipal** tomonidan Kafolat bo'yicha yetkazilgan zarar miqdori garovdagi mol-mulklarni sotish hisobidan qoplanmagan taqdirda, **Kafolat beruvchi** mazkur qarzlarni (zararni) qaytarishni **Prinsipalning** boshqa mol-mulklari hisobidan undirib olish huquqiga ega.

IV. SHARTNOMA BO'YICHA HISOB KITOBLAR

4.1. Kafolat berilganligi uchun **Prinsipal** tomonidan **Kafolat beruvchiga** amaldagi bank tarifiga asosan har _____da, keyingi_____ning _____-sanasiga qadar, berilgan Kafolat summasidan yillik ___% (har _____da ___%) miqdorida xizmat haqi (komissiya) to'lanadi.

4.2. Berilgan Kafolat **Prinsipal** tomonidan **Kafolat beruvchiga** qaytarilganda to'langan xizmat haqi qaytarilmaydi.

4.3. Mazkur Shartnoma bo'yicha **Prinsipal Kafolat beruvchiga** to'lashi lozim bo'lgan barcha summalarni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda, **Kafolat beruvchi** ushbu summalarni so'zsiz tartibda memorial order orqali **Prinsipalning** hisobvarag'idan yechib olishi mumkin.

4.4. Berilgan Kafolat bo'yicha **Prinsipal** majburiyatlari yuzasidan **Benefitsiarga** to'lab berilgan summasini, unga hisoblangan foizlar, neustoykalar, qarzlarni va ularni undirib olish bo'yicha sud xarajatlarini va **Kafolat beruvchiga** yetkazilgan boshqa zararlarni (moddiy va ma'naviy), boy berilgan foydani hamda **Prinsipal** o'z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida unga hisoblangan neustoykalarni ular yuzaga kelgan kundan boshlab to'liq miqdorda 3 (uch) ish kuni davomida **Kafolat beruvchiga** so'zsiz to'laydi.

4.5. **Benefitsiar** bilan tuzgan shartnomasi bo'yicha **Prinsipal** o'z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida Kafolat bo'yicha **Kafolat beruvchi** tomonidan to'lab berilgan majburiyat miqdoriga nisbatan, ushbu majburiyat bekor bo'lgunga qadar, qayta moliyalash stavkasining 2 (ikki) baravari miqdorida foiz hisoblab undiriladi.

4.6. **Kafolat beruvchi** mazkur shartnoma bo'yicha **Benefitsiarga** to'lab bergan barcha summalarni, unga hisoblangan foizlar, neustoykalar, qarzlarni va ularni undirib olish bo'yicha sud xarajatlarini, **Kafolat beruvchiga** yetkazilgan barcha zararlarni (moddiy va ma'naviy), boy berilgan foydani hamda **Prinsipal** o'z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida unga hisoblangan neustoykalarni **Prinsipalning** har qanday hisobvarag'idagi pul mablag'lari hisobidan akseptsiz tartibda undirib oladi.

4.7. Mazkur Shartnoma bo'yicha **Prinsipal Kafolat beruvchiga** to'lashi lozim bo'lgan barcha summalarni **Kafolat beruvchi** so'zsiz tartibda **Prinsipalning** boshqa bankdagi hisobvarag'idan yechib olishi to'g'risida to'lov talabnomasini qo'yishi mumkin.

V. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. **Taraflarning** biri kafolat shartnomasidagi majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan javob beradi.

5.2. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan **Taraf** yetkazilgan zararni to'liq miqdorda to'laydi.

5.3. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan **Taraf** zararni qoplash va majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun neustoyka to'lashi majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

VI. JAVOBGARLIKDAN OZOD QILUVCHI HOLATLAR

6.1. **Taraflar** yengilmas kuch ta'siridagi holatlar (fors-major), ya'ni **Taraflar** ko'ra bilmagan yoki oldini ololmaydigan, **Taraflarning** irodasi va xohishidan tashqari vujudga keladigan holatlar natijasida mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklarini isbotlab bera olsalar va **Taraflar** o'z majburiyatlarini ijro etish uchun mavjud barcha choralarni ko'rgan bo'lsalar, javobgarlikdan ozod etiladilar.

6.2. Fors-major holatlariga yong'in, suv toshqini, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, epidemiya, texnik fojealar, harbiy harakatlar, favqulodda vaziyatlar, davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, bank to'lov tizimi ishdan chiqishi, elektr tarmoqlarining uzilishi kabi holatlar kiradi.

6.3. Fors-major holati natijasida mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmagan **Taraf** boshqa **Tarafga** ushbu haqida fors-major holati vujudga kelgan kundan boshlab uch kun ichida xabar berishi shart.

6.4. Fors-major holatlari vujudga kelgan hollarda, Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi fors-major holat davom etgan muddatga kechiktiriladi.

6.5. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi **Taraflarning** uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

VII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH VA O'ZGARTIRISH ASOSLARI

7.1. Shartnomani bir Taraflama o'zgartirishga yoki bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

7.2. Bir **Taraf** Shartnomani bajarishdan to'la yoki qisman bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi, mazkur Shartnomada nazarda tutilgan hollardan tashqari.

VIII. SHARTNOMANING YAKUNIY SHARTLARI

8.1. Shartnoma tuzilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

8.2. Mazkur Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan muddat o'tgandan so'ng **Kafolat beruvchining** Kafolat bo'yicha **Benefitsiar** oldidagi majburiyati bekor

4 бет 5 дан

_____-Шартнома

_____ й.

bo'lmagan (tugamagan) bo'lsa, ushbu Shartnoma bo'yicha **Prinsipalning Kafolat beruvchi** oldidagi majburiyatlari bekor bo'lmaydi (tugamaydi).

8.3. Ushbu Shartnoma ijrosi bilan bog'liq bo'lgan tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar o'zaro kelishuv orqali hal etiladi.

8.4. O'zaro kelishuvlar natijasida hal etilmagan nizolar amaldagi qonunchilik talablari asosida sud tartibida ko'rib chiqiladi.

8.5. Mazkur Shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkala nusxa ham bir xil yuridik kuchga ega.

8.6. **Taraflar** o'z pochta manzili va hisobvaraqlar rekvizitlari o'zgarganligi to'g'risida bir-birlarini imkon qadar qisqa muddat ichida ogohlantiradi.

8.7. Mazkur Shartnomaning 8.6-bandini bajarmaslik **Taraflar** shartnomada nazarda tutilgan xat-xabarlar (yozishmalar) va to'lovlar o'z muddatida yetib bormaganligini sabab qilib ko'rsatishga (vaj qilishga) asos bo'lmaydi.

8.8. **Prinsipal** tomonidan har qanday xat-xabarlar yozma shaklda pochta orqali buyurtmali xat bilan yuborilishi yoki **Kafolat beruvchining** vakolatli xodimi olganligi to'g'risida yozuv va sanasini ko'rsatib imzo qo'ydirgan holda topshirilishi kerak.

8.9. Mazkur Shartnoma shartlari, unga qo'shimcha shartnomalar va shartnoma yuzasidan **Taraflar** olgan boshqa ma'lumotlar konfidensial hisoblanib, oshkor etilmaydi.

IX. TARAFLARNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

«KAFOLAT BERUVCHI»

AT «Aloqabank»

Vak.h/v: _____

MFO: _____

STIR: _____

Manzil: _____

Tel.: _____

AT «Aloqabank» _____

(HKXKM/KXKM)

rahbari: _____

(imzo) (F.I.Sh.)

Bosh buxgalter: _____

(imzo) (F.I.Sh.)

M.O'.

«PRINSIPAL»

« _____ »

(tashkilot nomi)

X/v: _____

MFO: _____

STIR: _____

Manzil: _____

Tel.: _____

Rahbari: _____

(imzo) (F.I.Sh.)

Bosh buxgalter: _____

(imzo) (F.I.Sh.)

M.O'.

Yuridik xizmat boshlig'i:

_____-Шартнома (imzo)

_____-Й

	HUJJAT ELEKTRON IMZO BILAN IMZOLANGAN
Sertifikat: dba4f4848206dbb3790078a0b6db8a08b9f54d22	
Egasi: Irisbekova Kammuna Narinbayevna	
Lavozimi: Boshqaruv Raisi v.b.	
Muddati: 14.05.2025 yildan 14.05.2027 yilgacha amalda	